

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI
VAZIRINING
BUYRUG‘I

**SHNQ 1.03.03-23 “QURILISH OBYEKTLARINI LOYIHALASHTIRISH”
SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**
[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 29-aprelda hisobga olindi,
hisob raqami 247]

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-oktabrdagi 577-son “Qurilish sohasiga oid talablarni soddalashtirish hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. SHNQ 1.03.03-23 “Qurilish obyektlarini loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 2016-yil 16-maydagi 65-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan SHNQ 1.03.01-16 “Korxonalar, bino va inshootlarni kapital qurilishi loyiha hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqilishi, ma‘qullanishi va tasdiqlanishi tartibi” shaharsozlik normalari va qoidalari;

O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisining 1996-yil 30-dekabrda 124-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan QMQ 1.03.03-97 “Turar-joy va jamoat binolarini hamda inshootlarni kapital ta‘mirlashga loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish tartibi, muvofiqlashtirish va tasdiqlash bo‘yicha yo‘riqnoma” qurilish me‘yorlari va qoidalari.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi bilan kelishilgan.

4. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir B. ZAKIROV

Toshkent sh.,
2024-yil 26-mart,
01/2-6-son
Kelishildi:

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi
B. YUSUPALIYEV**

2024-yil 22-fevral

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri K. SHARIPOV

2024-yil 26-fevral

Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri X. UMAROVA

2024-yil 28-fevral

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining birinchi
o‘rinbosari O. QUDRATOV**

2024-yil 4-mart

Favqulodda vaziyatlar vaziri A. KULDASHEV

2024-yil 14-mart

SHNQ 1.03.03-23 “Qurilish obyektlarini loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalari

Mazkur shaharsozlik normalari va qoidalari (bundan buyon matnda SHNQ deb yuritiladi) binolarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlashda loyihalash ishlarini amalga oshirish talablarini belgilaydi.

Ushbu SHNQ arxitekturaviy, tarixiy-madaniy qiymatga ega bo'lgan obyektlar turiga kiruvchi binolarni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1-bob. Shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

1. Ushbu SHNQda quyidagi shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar keltirilgan:

SHNQ 4.01.16 — 09 “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari”;

SHNQ 2.01.02 — 04 “Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi”;

SHNQ 2.08.01 — 19 “Turar joy binolari”;

SHNQ 2.08.02 — 09 “Jamoat bino va inshootlari”;

SHNQ 1.04.03 — 05 “Turar joy, kommunal va ijtimoiy-madaniy obyektlarni rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etish”;

SHNQ 2.04.07 — 22 “Issiqlik tarmoqlari”;

QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi”;

SHNQ 2.07.02-22 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish”;

QMQ 2.01.05-19 “Tabiiy va sun'iy yoritish”;

QMQ 2.01.18-18 “Binolar va inshootlar isitish, shamollatish va konditsiyalashtirish uchun energiya sarfi me'yori”;

SHNK 2.01.15-05 “Turar joy binolarini texnik ko'rikdan o'tkazish nizomi”

GOST 21.1101 — 2013 Qurilish uchun loyiha hujjatlari tizimi. Loyiha va ishchi hujjatlarga qo'yiladigan asosiy talablar (*rasmiy manbaa: Sistema proyektnoy dokumentatsii dlya stroitelstva. Osnovnie trebovaniya k proyektnoy i rabochey dokumentatsii*).

2-bob. Atamalar va ta'riflar

2. Mazkur SHNQda quyidagi atamalar va ularning ta'riflari qo'llanilgan:

atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot — atrof-muhitga ta'sirni baholash jarayonining ikkinchi bosqichi hisoblanadi, bunda atrof-muhitga ta'sirni baholash jarayonining birinchi bosqichi davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi natijalariga ko'ra qo'shimcha tadqiqotlar, maxsus tahlillar o'tkazish, atrof-muhitga va fuqarolar sog'lig'iga qo'shimcha ravishda salbiy ta'sirning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va boshqa holatlarda zarurligi aniqlangan bo'lsa, ishlab chiqiladigan materiallar;

arxitekturaviy-badiiy yechim — binoning fazoviy va rejaviy tashkil etilishi hamda uning vizual va funksional tavsiflari;

buyurtmachi — obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va buzishning amalga oshirilishini ta'minlovchi, shuningdek shu maqsadlarda loyiha-qidiruv, ekspertlik, qurilish-montaj va nazorat ishlarini bajarish uchun tegishli tashkilotlar bilan shartnomalar tuzuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

bosh loyihachi — loyihaning alohida qismlarini bajarish uchun subpudratchilar (hamijrochilar) bilan shartnomalar tuzgan holda ularni jalb qilib, loyiha-qidiruv ishlarini to'liq hajmda bajarish uchun buyurtmachi bilan shartnoma tuzgan loyiha tashkiloti;

bino va inshootlarni modernizatsiya qilish — binoning mavjud o'Ichamdagi foydalanish ko'rsatkichlarini zamonaviy talablarga muvofiqlashtirishga qaratilgan qurilish-montaj ishlari majmuasi, jumladan binolar, seksiyalar va kvartiralarning rejalashtirish tuzilmasini o'zgartirish, binolarni yetishmayotgan turdagi muhandislik uskunalari bilan jihozlash hamda ularni zamonaviy texnologiyalarga muvofiq bo'lgan tizimlar va alohida konstruksiyalar bilan almashtirish;

vizual tekshiruv — tayanch konstruksiyalardagi, qoplamalar va devorlardagi yoriqlar hamda shikastlanishlarni aniqlash uchun bino va inshootlarning texnik holatini ko'zdan kechirish;

joriy ta'mirlash — binoning foydalanish ko'rsatkichlarini saqlab turish bo'yicha ta'mirlash ishlari majmui;

ishchi loyiha — eng ko'p qiymat aks etgan asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar va ishchi hujjatlar bo'lgan hamda ishchi chizmalardan tashkil topgan loyiha hujjati;

ishchi hujjatlar — alohida bino va inshootlar hamda ish turlari uchun ishchi chizmalar jamlanmasidan iborat loyiha hujjati;

instrumental-texnik tekshiruv — maxsus kuzatuv, o'lchov va nazorat vositalaridan foydalangan holda binolar hamda inshootlarning texnik holatini tekshirish;

loyihalashtirish topshirig'i — quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan hamda mukammal va joriy ta'mirlanadigan obyektning loyiha hujjatlarini ishlab chiqishdan oldin texnik qoidalar va talablarni hisobga olgan holda, buyurtmachining loyiha hujjatlariga bo'lgan umumiy talabi;

loyiha hujjati — hajmiy-rejali, amaliy va texnikaviy yechimlarni, binolarni, inshootlarni va ularning majmualarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda joriy ta'mirlashning, shuningdek obodonlashtirish ishlarining qiymatini belgilovchi loyiha hujjati;

mukammal ta'mirlash — binoning ishonchliligini va unda qulay sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan foydalanish ko'rsatkichlarini yaxshilagan holda qayta tiklash bo'yicha qurilish-ta'mirlash ishlari majmui;

muhandislik-texnik qidiruvlar — hudud va yer uchastkalaridan ular doirasida ratsional va xavfsiz foydalanish, hududni rejalashtirish, hududda me'moriy-qurilish ishlarini rejalashtirish va loyihalash uchun kerakli bo'lgan materiallarni asoslab berish uchun tegishli ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida texnogen ta'sirning tabiiy sharoitlari hamda faktorlarini o'rganish;

mualliflik nazorati — obyektlarda qurilish — montaj ishlarining shaharsozlik hujjatlariga muvofiqligiga doir ustidan shaharsozlik hujjatini ishlab chiqqan loyiha tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;

sovuq ko'prikchalar — binoning to'suvchi konstruksiyasining past termik qarshilikka ega bo'lgan qismi (devorlarning choklari (tutashgan joylari), betonli elementning oxiri (burchagi). Bu konstruksiyalar yoki konstruktiv element qismlarining orasidagi chok bo'lib, u ancha yuqori issiqlik o'tkazuvchi materiallardan tashkil topishi mumin. Bunday joylar to'siqlarning boshqa qismlariga nisbatan kuchliroq soviydi va kondensat hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi;

rekonstruksiya qilish — asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni (yuklamalarni, xonalarning rejalashtirilishini, binoning qurilish hajmini va umumiy maydonini, muhandislik jihatdan jihozlanishini) o'zgartirish bilan bog'liq qurilish ishlari va tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

texnik-iqtisodiy asoslar yoki texnik-iqtisodiy hisob-kitob (TIA/TIHK) — loyihaning umuman eng ko'p miqdordagi qiymatini va moliyalashtirish ehtiyoji hajmini ko'rib chiqilgan moliyalashtirishning dastlabki shartlarini hisobga olgan holda belgilab beruvchi muqobil variantlarni o'rganish asosida loyihani amalga oshirishning eng samarali texnik-texnologik va tashkiliy yechimini tanlashni asoslab beruvchi loyihaoldi hujjatlar;

shaharsozlik faoliyati — davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning hududlarni va aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalaridan foydalanish turlarini belgilash, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish, binolarni, inshootlarni hamda ularning majmualarini

shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini, shuningdek mazkur hududlar hamda aholi punktlarining milliy, tarixiy-madaniy, ekologik, tabiiy o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish sohasidagi faoliyati;

qurilishni tashkil etish loyihasi — loyihaning tarkibiy qismi bo'lib, unda qurilishning umumiy davomiyligi va oraliq muddatlari, kapital mablag'lar va qurilish-montaj ishlari hajmlarining taqsimlanishi, moddiy-texnik resurslar va ularni qoplash manbalari, qurilish-montaj ishlarini bajarishning asosiy usullari va obyekt qurilishini boshqarish tuzilmasi belgilanadi.

3-bob. Umumiy qoidalar

3. Qurilish-ta'mirlash ishlarining (joriy va mukammal ta'mirlash, modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish bilan bog'liq ishlar) turi ShNQ 1.04.03-05 ga asosan aniqlanishi kerak.

4. Qurilish obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalashtirish insonning yashashi va hayotiy faoliyati uchun mukammal muhitni shakllantirishga, loyihalayanotgan obyektlarning xavfsiz va barqaror faoliyat yuritishiga, moddiy-texnika va mehnat sarfini optimallashtirishga, binolarning energiya samaradorligini oshirishga, bino va inshootlarni modernizatsiya qilishga hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim.

5. Turar joy binolarini mukammal ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish loyihasi hududdagi mavjud turar joylarning arxitekturaviy-badiiy yechimi bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur.

Binolarning hovli oldi hududlarini obodonlashtirish loyihalari o'z tarkibida hududdagi mavjud o'tish yo'laklari, yo'llar, trotuarlar, yog'ingarchilik suvlarini oqizish va drenaj tizimlarining qayta qurilishini nazarda tutishi kerak.

4-bob. Shaharsozlik faoliyati sohasidagi loyihalar tarkibi

6. Binolarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish loyihalarini ishlab chiqishda quyidagilar shakllantirilishi kerak:

Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorida belgilangan hujjatlar (arxitektura-rejalashtirish topshirig'i, loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosasi, bino va inshootlarning ixtisoslashishini o'zgartirish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurishni loyihalashtirishga ruxsatnoma)

muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha texnik shartlar;

qurilishni loyihalashtirish uchun topografik tasvir materiallari;

qurilish rejalashtirilgan obyektning batafsil rejalashtirish loyihasi yoki kadastr hujjatidagi yer uchastkalarini qurish va ulardan foydalanishni tartibga solish chiziqlari (qizil chiziq);

muhandislik-geologik va boshqa turdagi tadqiqotlar materiallari;

davlat ekologik ekspertizasining atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonoti (ijobiy xulosa);

madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha texnik topshiriq;

liftlar, gaz tarmoqlari va uskunalarining holati to'g'risida dalolatnoma (ma'lumotnoma);

mukammal ta'mirlanadigan turar joy binolari yaqinidagi texnogen obyektlar to'g'risida ma'lumotlar va mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda ularning ta'sir zonalari haqidagi materiallar;

bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish va mukammal hamda joriy ta'mirlashda nuqsonlar dalolatnomasi (tayanch qurilish konstruksiyalarining holatini vizual va instrumental texnik tekshiruvdan o'tkazish materiallari).

5-bob. Loyihaoldi hujjatlari

7. Loyihaoldi hujjatlari quyidagilardan iborat:

TIA (texnik-iqtisodiy asos);

TIHK (texnik-iqtisodiy hisob-kitob).

TIA/TIHK ishlab chiqishga texnik topshiriq hamda ularning texnik-iqtisodiy parametrlari.

6-bob. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish

8. Qurilish obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish mukammal va joriy ta'mirlash ishlari loyiha hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Joriy ta'mirlash ishlari ish turiga qarab loyiha hujjatlari yoki nuqsonlar dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

9. Qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal hamda joriy ta'mirlash ishlarining turli bosqichlarida loyihalashdan oldingi asoslovchi hujjatlar hamda ishchi hujjatlarni ishlab chiqish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

mustaqil bosqich sifatida TIA, TIHK, loyihalar eskizi (fotoeskiz) va loyiha konsepsiyasi, obyektlarning 3D formatdagi interyer, eksteryer va bosh rejalarni tayyorlash;

loyiha, ishchi loyiha va ishchi hujjatlarni alohida bosqich sifatida loyihalash;

texnik jihatdan murakkab bo'lmagan obyektlar va ommaviy qo'llaniladigan loyihalar asosida qurilayotgan obyektlar uchun ishchi loyiha davridagi bir bosqichli loyihalash.

10. Loyiha hujjatlari GOST 21.1101-2013 ga muvofiq rasmiylashtiriladi. Bunda, loyiha hujjati tarkibiga kiruvchi chizmalar amaldagi shaharsozlik normalari va qoidalari talablari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq bo'lishi hamda ular to'g'risidagi yozuvlar loyiha yoki ishchi loyihaning "Umumiy ma'lumotlar" varaqlarida keltirilishi kerak.

11. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlarga nomutanosib bo'lgan qismlar uchun kompensatsiyalovchi choralarni ta'minlash bo'yicha mazkur SHNQning 9-bobida keltirilgan tartibda maxsus texnik shartlar ishlab chiqilishi kerak.

12. Buyurtmachi, bosh loyihachi va jalb qilingan loyiha-qidiruv tashkilotlari qurilish obyektlarini loyihalashtirish jarayonida shaharsozlik normalari va qoidalari, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) kiritilgan taqdirda, loyiha hujjatlarini o'z vaqtida mazkur o'zgartirishlar (qo'shimchalar)ga muvofiqlashtirishi lozim.

13. Loyiha hujjatlarining tarkibi quyidagilardan iborat:

ishchi loyiha;

loyiha-smeta hujjatlari;

ishchi hujjatlar (tushuntirish xati, ishchi chizmalar, uskunalar va materiallarga bo'lgan talablar ro'yxati, smeta hujjatlari hamda namunaviy loyiha hujjatlarining katalog varaqlari).

Ishchi hujjatdagi chizmalarning asosiy tarkibi GOST 21.1101-2013 ga muvofiq rasmiylashtiriladi.

14. Loyiha hujjatining bo'limlari qabul qilinadigan loyiha yechimlarini asoslash uchun to'liq hajmda ishlab chiqilishi kerak.

Ishchi chizmalarda havola qilingan shaharsozlik normalari va qoidalari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shuningdek namunaviy konstruksiyalar, buyumlar va tugunlarning chizmalari ishchi hujjat tarkibiga kiritilmasligi mumkin.

15. Loyiha hujjatining nusxalar soni hamda elektron versiyasining formati loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq tayyorlanadi.

16. Loyihalalanayotgan obyektning energiya samaradorligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar mazkur SHNQning 10-bobiga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

17. Ishlab chiqarish obyektlar qurilishi uchun tuziladigan ishchi loyihaning tarkibi va mazmuni mazkur SHNQning 1-ilovasiga, turar joy va fuqaro obyektlari qurilishi uchun tuziladigan ishchi loyihaning tarkibi va mazmuni ushbu SHNQning 2-ilovasiga muvofiq bo'lishi kerak.

18. Obyektlarni parallel loyihalashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 305-son qarori bilan tasdiqlangan Obyektlar qurilishini loyihalash hujjatlarini ishlab chiqish bilan ayni bir vaqtda amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

7-bob. Mavjud bino va inshootlarni texnik tekshiruvdan o'tkazish

19. Mavjud bino va inshootlarni texnik tadqiq qilishning maqsadi mukammal ta'mirlashning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini belgilash, loyihalovchilarni ta'mirlanayotgan obyektning konstruksiyalari va uskunalarning texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash hisoblanadi.

20. Mavjud bino va inshootlarning zilzilabardoshlikka doir vizual hamda instrumental-texnik tekshiruvlari amalga oshirilishi lozim. Vizual tekshiruvlar instrumental-texnik tekshiruv o'tkazilishini talab etadigan hollarda binolar va inshootlarning zilzilabardoshlikka doir instrumental-texnik tekshiruvi o'tkaziladi.

21. Bino va inshootlarni texnik tadqiq qilish quyidagi ketma-ketlikda o'tkazilishi lozim: arxiv materiallarini, xatlov (inventarizatsiya) ma'lumotlarini hamda texnik pasport ma'lumotlarini o'rganish, mo'ljallangan ta'mirlash turiga bog'liq ravishda tadqiqotning maqsad vazifasini aniqlashtirish;

dastlabki vizual tekshiruvdan o'tkazish (bunda, umumiy konstruktiv tuzilma aniqlanadi, rejalashtirish tahlil qilinadi, ochish joylari, o'ralar aniqlanadi, namunalar olish mo'ljallanadi, konstruksiyalarning va muhandislik uskunalari holati mavjud qayishishlar, shikastlanishlar bayon qilinadi);

konstruksiyalarning instrumental tadqiq qilish (bunda, konstruksiyalarning ko'tarish qobiliyati aniqlanadi, muhandis-geologik, topogeodezik va boshqa turdagi izlanishlar bajariladi).

22. Bino va inshootlarni texnik tadqiq qilish natijasi bo'yicha SHNQ 2.01.15-05 talablariga muvofiq texnik xulosa tuziladi. Texnik xulosa materiallari alohida shakllantiriladi.

23. Ta'mirlash-tiklash ishlari davomida, binolardagi yashirin konstruksiya va elementlarning holatidagi nuqsonlarni yoki ularning eskirishini aniqlash uchun qo'shimcha o'rganish (tadqiq qilish) ishlari olib borilishi lozim. Qo'shimcha o'rganish (tadqiq qilish) natijalariga ko'ra zaruriyat bo'lsa, loyiha hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

24. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyihalashtirish topshirig'i mazkur SHNQning 3-ilovasida keltirilgan.

Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish muddati loyihalash topshirig'ida belgilanadi.

8-bob. Xorijiy normativ hujjatlar asosida ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarini shaharsozlik normalari va qoidalariga moslashtirish

25. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda xorijiy normativ hujjatlar talablari qo'llanilganda, ularni shaharsozlik normalari va qoidalariga moslashtirishda nomutanosib bo'lgan qismlar uchun kompensatsiyalovchi choralarini ta'minlash bo'yicha maxsus texnik shartlar ishlab chiqilishi lozim.

Maxsus texnik shartlar buyurtmachi tomonidan tayyorlangan alohida texnik topshiriq asosida ishlab chiqilishi kerak.

26. Xorijiy normativ hujjatlar asosida ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarining shaharsozlik normalari va qoidalariga nomutanosibliklarini kompensatsiyalovchi choralar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

ishlab chiqilib, taklif qilingan loyiha yechimlarining geologik, tabiiy-iqlimiy, seysmologik va boshqa o'ziga xos jihatlari, shuningdek har bir muayyan hududning o'ziga xos shart-sharoitlarni inobatga olingan holda aniqlab moslashtirish;

loyiha hujjatlarini sanitariya qoidalarini va normalari, yong'in xavfsizligi hamda ekologik normalar va qoidalar talablariga muvofiqligini aniqlab moslashtirish;

loyihaning grafik materiallari va chizmalariga berilgan tushuntirish matnlarini tekshirish, qayta ishlash, shuningdek loyiha hujjatining tarkibiga, mazmuniga hamda rasmiylashtirilishiga qo'yiladigan talablar qismida mazkur SHNQga muvofiq loyiha hujjatiga moslashtiriladigan qo'shimcha bo'limlarni yaratish;

loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda ularni texnik kuzatish;

hudud relyefini va loyihaning shaharsozlik talablariga mosligini tahlil qilish uchun atrofdagi obyektlarni o'rganish;

po'ydevorlarning texnik yechimlarini tekshirish uchun grunt xususiyatlarini hamda sizot suvlarining sathini aniqlash;

o'rtacha yillik harorat, qor va shamol ta'sirini inobatga oluvchi loyiha yechimlarining muvofiqligini ta'minlash maqsadida mintaqa iqlimini o'rganish;

loyihanayotgan obyektning bosh rejasida muhandislik kommunikatsiyalari tashqi tarmoqlariga ulanish yechimlarining maqbul (optimal) sxemalari;

landshaft dizayni va hududni obodonlashtirishning boshqa elementlarini ishlab chiqish.

9-bob. Maxsus texnik shartlarni ishlab chiqish

27. Maxsus texnik shartlar texnik topshiriqqa asosan quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: shaharsozlik, yong'inga qarshi hamda ekologik norma va qoidalarga, shuningdek sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarining talablariga rioya qilinishiga yo'naltirilgan qo'shimcha hisobiy, konstruktiv va boshqa tadbirlarning asoslanganligini hamda me'yoriy talablardan chetlashish hollarini kompensatsiyalovchi chora-tadbirlar (hisob-kitoblar, eksperimental tadqiqotlar, natura shaklidagi sinovlarning natijalari va h.k.)ni;

hajmiy-rejali, konstruktiv va muhandislik-texnik qidiruvlar hamda loyihaviy yechimlarga ko'ra maxsus talablarni;

bino va inshootning zilzilabardoshlilik, konstruktiv barqarorligi va yong'in xavfsizligi talablarini.

28. Xorijiy normativ hujjatlarga asoslanib ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarida maxsus texnik shartlarning bino va inshootlar zilzilabardoshlilik, konstruktiv turg'unligi va yong'in xavfsizligini ta'minlash qismlaridagi ko'rsatkichlar ushbu sohadagi milliy shaharsozlik normalari va qoidalari bilan belgilangan ko'rsatkichlarga teng yoki ulardan yuqori bo'lganda maxsus texnik shartlarning ishlab chiqilishi talab etilmaydi.

29. Maxsus texnik shartlarni ishlab chiqishdan oldin obyekt (hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlar, qo'llaniladigan materiallar va buyumlar)ning asosiy texnik yechimlarini hamda mavjud normativ bazani muayyan obyektga nisbatan tahlil qilish lozim.

30. Maxsus texnik shartlarning tarkibi va mazmuni xorijiy normativ hujjatlar va shaharsozlik normalari va qoidalarning tartibga soluvchi talablari o'rtasidagi tafovut darajasiga qarab individual ravishda qabul qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Bitta maydon (uchastka)da qurilishi nazarda tutilgan bir nechta bir xil turdagi bino va inshootlar uchun bitta maxsus texnik shartlar ishlab chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

10-bob. Loyiha hujjatlarining "Energiya samaradorlik" bo'limini ishlab chiqish

31. Obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlashda, ishchi loyiha ishlab chiqish jarayonida loyiha hujjatlari tarkibida "Energiya samaradorlik" bo'limi kiritilishi lozim.

Ushbu bo'limda loyihaning tegishli qismlarida qabul qilingan yechimlarning umumiy energiya samaradorlik ko'rsatkichlari ko'rsatilishi kerak.

Umumiy ko'rsatkichlar QMQ 2.01.18-19 da ko'rsatilgan isitish energiyasining solishtirma sarfining me'yoriy ko'rsatkichlari bilan taqqoslanishi lozim.

Ushbu bo'lim loyihaoldi va loyiha hujjatlari tasdiqlanish bosqichida ishlab chiqiladi. "Energiya samaradorlik" bo'limini ishlab chiqish loyiha tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

32. "Energiya samaradorlik" bo'limi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

binoning umumiy tavsifi;

binoning loyiha yechimlari, hajmiy-rejaviy tavsiflar, geometrik parametrlar;

issiqlik energetik parametrlar hisobi uchun ma'lumotlar;

to'suvchi konstruksiyalarning alohida elementlari uchun issiqlik o'tkazish qarshiligining me'yoriy qiymatini aniqlash;

binoning energetik parametrlari hisob-kitobi;

energetik pasportni to'ldirish;

tashqi to'siq konstruksiyalarining issiqlik texnik ko'rsatkichlarini hisoblash, issiqlik o'tkazish qarshiligini keltirilgan hisobini qo'shgan holda;

energiya tejamkorlik tadbirlari;

xulosa va tushuntirish xati.

33. "Energiya samaradorlik" bo'limining tushuntirish xatida quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

loyihalashtiriladigan obyektning energetik tavsiflari;

energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan loyiha yechimlari to'g'risida ma'lumotlar;

qurilish maydonchalarini tanlashda va binoni uchastkada joylashtirishda loyiha yechimlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida energiyani tejash tadbirlari;

hajmiy-rejaviy yechimlarni aniqlash va ishlab chiqiladigan loyihaning barcha bo'limlari uchun loyiha yechimlarini tanlash materiallari;

binoning ixchamligi, xonani oqilona bloklashtirish, yuqori issiqlik ajratishga ega bo'lgan xonani joylashtirish tartibi;

binoning to'suvchi konstruksiyalarining issiqlik himoyalovchi va issiqlik fizikasi parametrlarining shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiqligi;

sovuq ko'priklarining yo'qligi, yilning sovuq mavsumida tashqi havo infiltratsiyasining pasayishi, oynavandlashning optimal yuzasi, quyoshdan himoyalovchi moslamalarning ishlatilishi, koridorlarni tabiiy yorug'lik bilan samarali yoritish, tom konstruksiyalarining energiya samaradorligini ta'minlovchi texnik yechimlar, ob-havo sharoiti va xona ekspluatatsiya rejimining o'zgarishiga ko'ra xonalarda isitish asboblarining issiqlik ishlab chiqishini o'zgartirish orqali haroratni boshqarishning imkoni borligi;

to'suvchi konstruksiyalarning texnik yechimlari tavsifi va issiqlik uzatishning keltirilgan qarshiligi hisobi;

hisoblarda qabul qilingan ichki havo harorati ko'rsatilgan birinchi qavatning ostida va oxirgi qavatning ustidagi qabul qilingan hajm turlari, yashash uchun mo'ljallangan mansarda qavatining mavjudligi, kirish eshiklarning tamburlari va vestibullarning isitilishi, lodjiyalarning oynavandlanishi;

qabul qilingan isitish, ventilyatsiya va sun'iy iqlim yaratish tizimlari, energiyaning samarali ishlatilishini ta'minlovchi hisoblaydigan va tartibga soladigan jihozlarning mavjudligi;

binoning energiya samaradorligini oshiruvchi maxsus usullar:

quyosh energiyasidan passiv foydalanishga mo'ljallangan moslamalardan foydalanish;

tortilgan havo issiqligini yo'qotish tizimi, sovuq yerto'lalardan o'tuvchi isitish tizimi va issiq suv quvurlarining issiqlik izolyatsiyasini mustahkamlash;

issiqlik nasoslarning ishlatilishi va boshqalar;

manbalarni obyekt uchun tanlash va joylashtirish ma'lumotlari. Zarur bo'lgan holatlarda markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti o'rnida lokal issiqlik manbalaridan foydalanishning texnik-iqtisodiy asoslari keltiriladi;

energiya iste'moli qismida loyiha yechimlari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning me'yorlar talablariga ko'ra taqqoslanishi;

binoning energetik pasporti.

34. Bino (inshoot)ning energetik pasporti shakli mazkur SHNQning 4-ilovasida keltirilgan va QMQ 2.01.04-18 ga muvofiq shakllantiriladi.

35. Binoning energetik pasporti tarkibiga quyidagilar kiritilishi lozim:

loyiha bo'yicha umumiy ma'lumot;

hisobiy shartlar;

binoning funksional vazifasi va tipiga oid ma'lumot;

binoning hisobiy energetik ko'rsatkichlari;

me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslanganlik to'g'risida ma'lumot;

binoning energiya samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar;

binoning bir yillik foydalanish muddatidan keyin energiya samaradorligi va issiqlik himoyasi darajasini o'lchash natijalari.

Binoning energetik pasporti grafik qismi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

issiqlik himoya qatlami uchun foydalaniladigan samarador materiallarning arxitekturaviy tugun va detallarini;

bino va inshootlarda energiya zaxiralarini qayd etish (hisoblash) uskunalari o'rnatish sxemasini.

Ishlab chiqarish obyektlari qurilishi uchun tuziladigan ishchi loyihaning tarkibi va mazmuni

1. Umumiy tushuntirish matni

Umumiy tushuntirish matni tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

loyiha hujjatini ishlab chiqish asosi;

loyihalash uchun dastlabki materiallar:

korxonaning tavsifi, uning tarkibi, qurilish va majmualarni ishga tushirish muddatlari, loyihaviy quvvati va ishlab chiqarish dasturi to‘g‘risida ma‘lumotlar, mahsulotning sifati, raqobatbardoshlik qobiliyati va texnik darajasi, xomashyo bazasi, yoqilg‘i, suv, issiqlik, elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojlar to‘g‘risida ma‘lumotlar;

mahsulot ishlab chiqarishda xomashyo, ishlab chiqarish chiqindi turlari, ikkilamchi energiya resurslaridan kompleksli foydalanish haqida ma‘lumotlar;

loyihalananayotgan obyektning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini bartaraf etishni ta‘minlovchi tabiat muhofazasi tadbirlarini tavsiflovchi ma‘lumotlar;

foydalanilgan ixtirolar to‘g‘risida ma‘lumotlar;

bosh tarh, muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalari bo‘yicha yechimlar;

fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarni ogohlantirish bo‘yicha muhandislik-texnik tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumotlar.

2. Texnik-iqtisodiy tahlil

Ishlab chiqarishdagi iqtisodiy tejamkorlik bo‘yicha quyidagi ma‘lumotlar texnik-iqtisodiy tahlil tarkibiga kiradi:

xomashyo, materiallar va yoqilg‘i-energetik resurslarning solishtirma sarflari;

ishlab chiqarish va umumiy investitsiya xarajatlari;

asosiy turdagi mahsulotlarning hisoblangan tannarxi;

qurilish va loyihaviy quvvatlarni o‘zlashtirish muddatlari;

taqqoslash asosida bajariladigan tahlil loyihalashga berilgan topshiriq bilan o‘rnatilgan loyiha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘xshash ilg‘or milliy va xorijiy obyektlarning ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;

ishga tushiriladigan majmualar (ular mavjud bo‘lgan holda) va ularning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma‘lumotlar.

3. Bosh tarh va transport bo‘yicha yechimlar

Bosh tarh va transport tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

qurilish hududi va maydonining tavsifi;

bosh tarh, ichki hamda tashqi transport bo‘yicha yechimlar va ko‘rsatkichlar, transport turini tanlash, asosiy tarhiy yechimlar;

obodonlashtirish bo‘yicha tadbirlar;

muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarini joylashtirish bo‘yicha yechimlar;

korxonani qo‘riqlashni tashkil etish.

“Bosh tarh” bo‘limining asosiy chizmalari o‘z ichiga quyidagilarni kiritadi:

korxonalar, binolar, inshootlar joylashishining vaziyatli tarhi, unda mavjud va loyihalananayotgan tashqi kommunikatsiyalar, muhandislik tarmoqlari va seliteb hududlar, sanitariya-himoya zonalarini alohida qo‘riqlanadigan hududlarning chegaralari ko‘rsatiladi;

trassalar tarhi (chiziqli inshootlar uchun), bo‘ylama qirgim (zarur bo‘lgan holda);

bosh tarh, unga mavjud va loyihalananayotgan (rekonstruksiya qilinayotgan) hamda buzilishga tushgan binolar va inshootlar, ekologik xavfli obyektlar, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish elementlari, ichki maydon muhandislik tarmoqlari va transport kommunikatsiyalarining joylashishi, hududning tarhiy sath belgilari tushiriladi.

Ishga tushiriladigan majmualarga kiradigan obyektlar, kommunikatsiyalar va tarmoqlar ajratilib ko'rsatiladi.

4. Texnologik yechimlar

Texnologik yechimlar quyidagilarni o'z tarkibiga oladi:

ishlab chiqarish dasturi to'g'risidagi ma'lumotlar;

qabul qilingan ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha yechimlarning tavsifi va asosi;

ishlab chiqarishda chiqitsiz va kam chiqitli texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishlarni qo'llash bo'yicha yechimlar;

sotib olinadigan (import qilinadigan) uskunalarning tarkibi va asoslanganligi;

mahsulot sifatini nazorat qilishni tashkil etish bo'yicha takliflar;

chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun uskunalarni modernizatsiyalash va texnologik jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha tadbirlar;

bino va inshootlardagi va ular orasidagi kommunikatsiyalarning tavsifi, issiqlik, elektr energiyalari va elektr uskunalari bilan ta'minlash bo'yicha yechimlar;

texnologik jarayonlarning yoqilg'i-energetik va materiallar balanslari;

loyihaviy quvvatlarni o'rnatilgan muddatlarda o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar;

yong'in xavfsizligi bo'yicha texnologik jarayonning tahlili;

ta'mirlash xo'jaligini tashkil qilish bo'yicha yechimlar;

utilizatsiya qilinadigan va ko'miladigan ishlab chiqarish chiqindilarining turlari, tarkibi va hajmi bo'yicha maxsus poligonlarga yo'naltirish.

"Texnologik yechimlar" bo'limining asosiy chizmalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

texnologik jarayonlarning sxemalarini;

asosiy uskunalar va transport vositalarining joylashishini ko'rsatgan holda asosiy korpuslar (sexlar) bo'yicha texnologik kompaktlashtirish va tarhlashni;

yuk oqimlarining sxemasini;

bino va inshootlar elektr ta'minotining sxemalari;

issiqlik tarmoqlarining magistral va tarqatuvchi trassalarining sxemalari.

5. Ishchilar hamda xizmatchilar mehnatini tashkil etish va ularning mehnat sharoitlari

"Korxonani boshqarish" bo'limi tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

ishlab chiqarish, mehnat va boshqarishni tashkil etish bo'yicha yechimlar;

ishchi-xodimlarning sonini hisoblash va ularning kasbiy-malakaviy tarkibi;

ish joylarining soni va jihozlanganlik darajasi;

ishchi-xodimlarga yaratilgan sanitariya-gigiyenik shart-sharoitlar;

mehnat muhofazasining xavfsizlik texnikasi bo'yicha tadbirlar, ishlab chiqarish shovqinlari va vibratsiyasi, xonalar havosidagi gaz miqdori, ortiqcha issiqlik, mehnat sharoitlarining shinamlik darajasini oshirish bo'yicha yechimlar;

chamalangan tadbirlarning samaradorligini baholash.

6. Arxitektura-qurilish yechimlari

Arxitektura-qurilish yechimlari o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

qurilish maydonining muhandislik-geologik, gidrogeologik, tabiiy-iqlim va gidrometeorologik shart-sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

asosiy binolar va inshootlar bo'yicha arxitekturaviy-tarhiy, konstruktiv va qurilish yechimlarining tavsifi va asosi;

ish joylarining yoritilganligi, ishchi-xodimlarga sanitariya-maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha yechimlar;

vibratsiyalar va shovqinlarni bartaraf etish yechimlari;

portlash va yong'in xavfsizligi bo'yicha tadbirlar;

qurilish konstruksiyalarining uzoqqa chidamliligi, tarmoqlar, inshootlar va uskunalarni korroziyadan himoya qilish bo'yicha yechimlarni;

suv ta'minoti, kanalizatsiya, isitish, havo ventilyatsiyasi va uni sun'iy sovutish bo'yicha asosiy yechimlar;

suvni tayyorlash va oqava suvlarni tozalash usullari, oqavalarning tarkibi va ularni baholash;

namunaviy loyihalar va qayta qo'llaniladigan individual loyihalarning ro'yxatlari; boshqarishni muhandislik tizimlari bilan dispetcherlashtirish va avtomatlashtirish.

Fuqaro himoyasining muhandislik-texnik tadbirlari hamda texnogen va tabiiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlarni ogohlantirish bo'yicha yechimlar fuqaro himoyasi, aholi hamda hududlarni texnogen va tabiiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi normalar va qoidalarga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Mazkur bo'limning asosiy chizmalariga quyidagilar kiradi:

asosiy yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalarni tasvirlagan holda asosiy binolar va inshootlarning tarhlari, qirqimlari va fasadlari;

namunaviy loyihalarning katalogli varaqlari;

qayta qo'llaniladigan individual loyihalarning ishchi chizmalari;

tashqi tarmoqlar va transport vositalari hamda asosiy ichki maydon tarmoqlarining tarhlari va qirqimlari.

7. Konstruktiv yechimlar (binolar va inshootlarning zilzilabardoshligi)

Konstruktiv yechimlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

qurilish maydonining shart-sharoitlari to'g'risida ma'lumotlar;

binolar va inshootlar zilzilabardoshliligini ta'minlashni inobatga olgan holda konstruktiv yechimlarning tavsifi va asosi;

konstruktiv yechimlar va sxemalarning asosi;

vibratsiya va shovqinlarning ta'siri;

konstruksiyalarning portlash va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar;

tabiiy va texnogen ta'sirlarni kompensatsiyalovchi tadbirlar bo'yicha yechimlar.

8. Qurilishni tashkil etish

Qurilishni tashkil etish loyihalari mazkur SHNQga muvofiq ishlab chiqiladi.

9. Fuqaro himoyasi va favqulodda vaziyatlarni ogohlantirish bo'yicha muhandislik-texnik tadbirlar

Texnik shartlar asosida fuqaro himoyasi, aholi hamda hududlarni texnogen va tabiiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi shaharsozlik normalari va qoidalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

10. Sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlash bo'yicha muhandislik-texnik talablar

Ushbu bo'lim sanoat xavfsizligi sohasidagi normalar va qoidalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

11. Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot

Ushbu bo'lim atrof-muhit muhofazasi sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq ishlab chiqiladi.

12. Energiya samaradorlik bo'yicha texnik tadbirlar

Ushbu bo'lim QMQ 2.01.04 ga muvofiq ishlab chiqiladi.

13. Qurilishning narxi (qiymati)

Qurilishning narxi (qiymati) SHNQ 4.01.16-09 bilan aniqlangan tartibda materiallar, konstruksiyalar va buyumlar, mehnat sarfi, shuningdek mashina-mexanizmlarga sarflanadigan xarajatlarning resursli hisobotlari bo'yicha aniqlanadi.

Turar joy va fuqaroviy obyektlarni qurilishi uchun tuziladigan ishchi loyihaning tarkibi va mazmuni

1. Umumiy tushuntirish xati

Umumiy tushuntirish xati tarkibiga quyidagilar kiradi:

loyihani ishlab chiqish uchun asos;

loyihalash uchun boshlang'ich ma'lumotlar;

qurilish maydonchasini tanlashni asoslash to'g'risidagi ma'lumotlar;

obyektning mufassal tavsifi;

obyektning loyihaviy quvvati to'g'risidagi ma'lumotlar (sig'imlilik, ma'lum vaqt ichida bajaradigan ishining miqdori va h.k.);

yoqilg'i, suv, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlar to'g'risidagi ma'lumot;

qurilishning ketma-ketligi to'g'risidagi ma'lumot;

texnik ekspluatatsiyalashga oid tadbirlar;

ixtirolardan foydalanishga oid ma'lumotlar.

2. Arxitektura-qurilish yechimlari

Arxitektura-qurilish yechimlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

bosh rejaning, shuningdek obodonlashtirish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari va yechimlari;

shaharsozlik talablarini inobatga olgan holda loyihalashtirilgan obyektlar va ularning funksional vazifasiga ko'ra arxitektura-qurilish yechimlarining qisqacha tavsifi va asoslashi;

bino va inshootlarning ichki pardoqlash ishlariga oid yechimlar;

zamonaviy talablarga javob beruvchi mehnat qilish, yashash va istirohat uchun mo'ljallangan xonalarning qulayligini ta'minlashga doir ma'lumotlar;

buyurtmachi tomonidan belgilangan talablar va texnik shartlar bo'yicha hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlarni tuzish;

obyektning portlash va yong'in xavfsizligi tadbirlari;

qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoyalash;

ishchi xodimlarning salomatligini himoya qilish tadbirlari va nogironligi bo'lgan va harakatlanishi chegaralangan aholi guruhining yashash va faoliyat yuritish shart-sharoitlarini ta'minlash bo'yicha yechimlar.

3. Texnologik yechimlar

Texnologik yechimlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Buyurtmachi tomonidan belgilangan qulaylik darajasiga va zamonaviy ilm va texnika yutuqlariga muvofiq keluvchi qabul qilingan texnologiyalar, texnologik jarayonlarning mexanizatsiyasi va avtomatizatsiyasiga oid yechimlar tavsifi va asoslashi;

jihozlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari (zarur bo'lganda — xorijiy texnologik asbob-uskunalarni sotib olishni asoslash);

xizmat ko'rsatuvchi personal sonining hisobi.

4. Muhandislik jihozlarining yechimi

Muhandislik jihozlari bo'yicha yechimlar quyidagilar bo'yicha loyiha yechimlarini o'z ichiga oladi:

bino va inshootlarning muhandislik tizimlari (isitish, ventilyatsiya, sun'iy iqlimni ta'minlash, gaz ta'minoti, suv ta'minoti va kanalizatsiya);

muhandislik tizimlarini dispetcherlashtirish va ularning avtomatlashtirish, videokuzatish, aloqa, muhofaza va yong'inga qarshi signalizatsiyasi, radiofiksatsiyalash, televideniye va h.k.;

elektr jihozlari, elektr yoritish, chaqmoqdan himoyalash, elektr uskunalarning ekspluatatsiyasi, qo'zg'aluvchan toklardan himoya tadbirlari va korroziyaga qarshi himoya;

yong'inga qarshi himoya tadbirlari.

5. Asosiy chizmalar

masshtabi 1:5000; 1:10000 bo'lgan joylashuv (holat) tarhi;

masshtabi 1:500; 1:1000 bo'lgan, topografik asosi bo'yicha qurilish uchastkasining bosh tarhi;

binoning tarhi, fasadlari, bino (inshoot)ning kesimi, yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalarning chizmalari;

namunaviy yoki ko'p foydalaniladigan loyihalarni bog'lash katalog varaqlari; asosiy xonalarning interyerlari (loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq ishlab chiqiladi);

individual konstruktiv yechimlar, texnologik komponentlar yoki asosiy asbob-uskunalar qavatlararo joylashtirish rejasi;

turur-joy binolar uchun mebellarni joylashtirish namunasi;

muhandislik jihozlarning prinsipial joylashtirish sxemalari;

tashqi muhandislik-kommunikatsiya trassalarining sxemalari;

maydon ichkarisidagi tarmoqlar trassasining tarhi va ularga bog'liq inshootlar;

obyektlarning elektr ta'minoti sxemasi, muhandislik jihozlar va sanitar-texnik vositalarini boshqarishni avtomatlashtirish prinsipial sxemalari;

aloqa va signalizatsiyani tashkil etish sxemalari, chiqindi chiqarish sxemalari;

fuqaro muhofazasi va favqulodda holatlarni ogohlantirish bo'yicha muhandis-texnik tadbirlar.

Asosiy chizmalar tarkibi obyektning o'ziga xos xususiyati va funksional vazifasiga ko'ra farq qilishi mumkin.

Texnik shartlar asosida fuqaro himoyasi, aholi hamda hududlarni texnogen va tabiiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi shaharsozlik normalari va qoidalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

6. Qurilishni tashkil etish

Qurilishni tashkil etish loyihasi tarkib va mundarijasi SHNQ 3.01.01 bo'yicha, hamda loyihalashtirish topshirig'ida keltirilgan talablar va loyiha ishlarini bajarish shartnomalarini inobatga olgan holda aniqlanadi.

7. Qurilishning narxi

Qurilish narxi SHNQ 4.01.16-09 da ko'rsatilgan tartibda materiallar, konstruksiyalar va buyumlarning sarfi, mehnat sarfi, mashina-mexanizmlarning ishlash vaqtining sarfi zaxirasi qaydnomalari asosida aniqlanadi.

“TASDIQLAYMAN”
Buyurtmachi tashkilot rahbari

20__ y. “__” _____

obyektining
(obyekt nomi, manzili)

**Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun
LOYIHALASHTIRISH TOPSHIRIG‘I**

T/r	Asosiy ma’lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma’lumotlar va talablar mazmuni
1.	Obyektning nomi	Obyektning nomi to‘liq kiritiladi (qisqartmalarsiz).
2.	Qurilish joyi	Obyektning yuridik manzili (shahar, tuman, ko‘cha).
3.	Buyurtmachi	Buyurtmachining nomi va uning rekviziti, manzili, telefon raqamlari, elektron pochta manzili, mas’ul shaxs.
4.	Ishlab chiqish uchun asoslar	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, qarori, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarori va farmoyishi.
5.	Loyiha bosqichi	Namunaviy loyiha (NR raqami, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi buyrug‘i asosida texnik kengash bayoni).
6.	Qurilish turi	Yangi qurilish, qayta qurish (zamonaviylashtirish, kengaytirish, texnik qayta jihozlash bilan bog‘liq).
7.	Obyektning loyihaviy quvvati	Binoning: maktabda (o‘quvchi soni); maktabgacha ta’lim muassasasida (tarbiyalanuvchilar soni); tibbiyot muassasasida (shifoxonada — to‘shak o‘rinlari; poliklinika — kunlik qatnovchilar soni); turar joy binolarida (xonadon soni) va boshqalar.
8.	Moliyalashtirish manbai	Respublika budjeti va ularga tenglashtirilgan, davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar, xususiy mablag‘lar, homiylar va grant qo‘yilmalari mablag‘lari, to‘plangan mablag‘lar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.
9.	Qurilishning taxminiy bahosi (mln so‘m)	O‘xshash obyektlar yoki yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadigan qurilishning umumiy qiymati.
10.	Obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, unumdorligi, ishlab chiqarish dasturi, shuningdek turar joy yoki umumiy binolar	Loyihalashtirish jarayonida olinishi zarur bo‘lgan loyihalashtirish obyektining to‘liq tasnifi, uni asosiy sifati.
11.	Umumiy xizmat ko‘rsatish korxonalarida	Ushbu shartlar turar joy binolari uchun ko‘rsatiladi.

	qurilgan turar joy uylarning vazifasi va turi, ularning quvvati, sig'imi, qabul qilish qobiliyati, tarkibi va xonalar maydoni, qurilish hajmi	Loyihalashtirish obyekti tarkibida shunday obyektlar bo'lgan holatlarda to'ldiriladi. Loyihalashning barcha ko'rsatkichlari nazarda tutiladi.
12.	Mahsulotlarning raqobatbardoshlik sifati va ekologik parametrlariga talablar Korxonaning texnologiyasi va rejimiga bo'lgan talablar	Ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha talablarni ko'rsatish-texnologik topshirig'i, ishlab chiqarish texnologiyasini batafsil ta'riflash, texnologik asbob-uskunalar ta'siridan hosil bo'ladigan yuklamalar, talab qilingan maydonlar, texnologik uskunalarning o'ziga xos shartlari, ishlab chiqarish jarayoni va shu kabilarni ta'riflash va boshqalar. Texnologik topshiriq tayyorlanishining muhimligiga alohida e'tibor qaratish, uning sifati loyihalashtirish obyektini funkcionalligi va buyurtmachi ehtiyoji uchun kerakliligiga bog'liq. Ko'plab yirik tashkilotlar, tarmoqli kompaniyalar texnologik jarayonlar talablarini to'la tavsiflash lozim.
13.	Obyektni texnologik jihozlash	Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi.
14.	Arxitektura-qurilish, hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binolarni pardoqlashga talablar	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining (mc.uz/namunaviy-loyihalar-11/) rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan obyektlarning namunaviy loyihalariga qo'llanilgan loyihaviy yechimlardan, tugunlardan foydalanish. Binolar, xonalar va ularning maydonlarining joylashishi bo'yicha tavsiyalar keltiriladi. Binolarda qurilish materiallarini ularning alohida konstruksiyalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.
15.	Xonalar tarkibi, foydalanish maqsadi	Buxgalteriya — aniq mutaxassisligi bo'yicha ishchi o'rni.
16.	Xodimlarni aniq mutaxassisligi bo'yicha xonalarga taqsimlanishi	1 odam uchun mo'ljallangan maydon (m ²).
17.	Bino qavatlarining balandligi	Tasdiqlangan me'yor bo'yicha.
18.	Yerto'ladan foydalanish maqsadi	Yerto'la va yarim yerto'lalarning maydoni, balandligi va foydalanish maqsadi ko'rsatiladi.
19.	Pol qoplamalarining materiallari (aniq ko'rsatilishi shart)	Pol qoplamalarini to'liq qatlam xomashyosini ketma-ketligini ko'rsatib o'tiladi.
20.	Shiftlarni pardoqlash turlari	Normativ hujjatlarga asoslanib (sanitariya va yong'in xavfsizligi me'yorlarini hisobga olgan holda).
21.	Tashqi devorning issiqlik himoyasi	Energiya tejamkor materiallardan foydalanish.
22.	Derazaga bo'lgan talab	SHNQ 2.01.02-04 "Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi"; SHNQ 2.08.01-19 "Turar joy binolari"; SHNQ 2.08.02-09 "Jamoat binolari va inshootlari" talablaridan chiqmagan holda; darchasiz og'ma derazalar o'rnatish ko'zda tutiladi.
23.	Eshikka bo'lgan talab	SHNQ 2.01.02-04 "Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi";

		SHNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari”; SHNQ 2.08.02-09 “Jamoat binolari va inshootlari” talablaridan chiqmagan holda; eshiklar ostonasiz o‘rnatilishi ko‘zda tutiladi.
24.	Liftning o‘lchami va quvvati	SHNQ 2.08.01-19 “Turar joy binolari” 13-ilovaga muvofiq (majburiy).
25.	Tom qismining turi	Me‘moriy yechimidan kelib chiqqan holda namunaviy tugunlardan foydalanish.
26.	Tashqi fasad materiali va rang namunasi	Qurilish boshqarmasi va tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan holda.
27.	Hovli devorlari bo‘yicha talablar	Kam xarajatli, ixcham va me‘yor doirasida namunaviy tugunlardan foydalanish.
28.	Obodonlashtirish va kichik arxitektura shakllariga talablar	Tutash maydonlarni, daraxtlar o‘tkazish, shoxobcha yo‘llarni, piyodalar yo‘lakchalari yotqizish, avtoturargohlar, bolalar o‘yin maydonchalarini obodonlashtirish, irrigatsiya tizimlarini o‘rnatish va boshqarish bo‘yicha talablarning ta‘rifi hududlarning tasdiqlangan batafsil rejalashtirish loyihasiga (PDP) asosan bayon etiladi. Namunaviy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi.
29.	Obodonlashtirishdagi ish turlari va daraxtlar soni	Daraxtlarning iqlimga va hududga mosligi, suvsizlikka chidamliligi, ko‘p yillikligi. Bino va inshootlarni joylashtirishda mavjud daraxtlarga zarar yetkazmagan holda loyihalash. Namunaviy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi.
30.	Piyoda yo‘laklarining o‘lchovlari va turlari	Sifatli, kamxarj, ixcham va arzon materiallarni qo‘llash. SHNQ 2.05.02-07 “Avtomobil yo‘llari” 4.41-bandi 22-jadvalga asosan. Namunaviy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi.
31.	Konstruktiv yechimlarga, yuk ko‘tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallariga qo‘yiladigan asosiy talablar	Devorlar, qoplamalar (tomlar), bostirmalar, fermalar, to‘sinlar va shu kabi boshqa talablarni to‘liq ko‘rsatish. Yuk ko‘tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallariga qo‘yiladigan asosiy talablarni yoritish. Zilzilabardoshlik bo‘yicha talablar (texnik pasport).
32.	Muhandislik va texnologik asbob-uskunalariga, texnologik jihozlarga qo‘yiladigan talablar Texnologik asbob-uskunalarining ro‘yxati	Isitish, sovitish, ventilyatsiya, ichimlik suvi, kanalizatsiya, elektr tarmoqlari va texnologik asbob-uskunalar tavsifi va ularni qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar berish. Sensorli yoritish vositalaridan foydalanish. Dastgohlarning aniqligi va tayyorlanishi bo‘yicha klassi, shuningdek ularning bajarilish sifati va bardoshlilik talablari.
33.	Quyosh batareyalari va quyoshli suv isitish kollektorlarining quvvatlari	SHNQ 2.04.16-18 “Quyoshli issiq suv ta‘minoti qurilmalari” talablariga asosan ishlab chiqilganligi.
34.	Issiqlik ta‘minoti	SHNQ 2.04.07-22 “Issiqlik tarmoqlari” talablariga asosan ishlab chiqilganligi. Texnik xulosalarni taqdim etish.
35.	Avtomatlashtirish, texnologik jarayonni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (TJ BAT) va boshqaruvni	Avtomatlashtirish, TJ BAT va boshqaruvni markazlashtirish tizimlari bo‘yicha tavsifi va qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berish. Jihozlar ro‘yxati.

	markazlashtirish bo'yicha asosiy talablar	
36.	Mehnat gigiyenasi va xavfsizlik rejimi talablari	Loyiha hujjatlari tarkibida "Ishchilar mehnatini tashkil etish va sharoitlar" bo'limi ishlab chiqilgan hollarda ushbu bo'limga talablar ko'rsatiladi. Sanoat obyektlari uchun qo'llaniladi.
37.	Loyihalashtirish uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi	Loyihalashtirish uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi keltiriladi. Loyiha-qidiruv tashkiloti bilan kelishilgan holda, ularning o'zlari tomonidan yig'iladigan dastlabki ma'lumotlar (hujjatlar) ro'yxati bayon etiladi. Mazkur SHNQga muvofiq injener-geologik va topografik materiallar buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi. Topografik xaritada mavjud bino va inshootlar hamda yer osti va yer usti tarmoqlari ko'rsatilishi talab etiladi.
38.	Atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlash bo'yicha talablar	Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida Atrof-muhitga ta'siri bayonoti (AMTB) loyihasi ixtisoslashtirilgan tashkilot bilan alohida shartnoma asosida buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi. Talab etilgan holatlarda ekologik toza qurilish materiallaridan foydalanish, yashil qurilish elementlarini qo'llash yoki tashqi energiya resurslarning iste'molisiz (kamaytirilgan) talablar va shartlar qo'llanishi zarurati ko'rsatiladi.
39.	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	Qurilish materiallari va mehnat resurslari, shuningdek mashina-mexanizmlarni hisoblash bo'yicha tuziladigan smetalar tarkibiga qo'yiladigan talablar aks ettiriladi. Narxlar joriy qiymatlarda, SHNQ 4.01.16-09 talablari asosida belgilanadi. Qurilishning joriy narxlardagi dastlabki qiymati buyurtmachi tomonidan shakllantiriladi yoki uning topshirig'iga asosan loyiha tashkiloti tomonidan aniqlanadi.
40.	Loyihalashtirilayotgan obyekt tarkibi	Barpo etilayotgan obyektning butun asosiy hamda yordamchi bino va inshootlari ro'yxati ko'rsatiladi.
41.	Qabul qilinadigan loyiha yechimlarida energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha talablar	Loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda 2-darajali energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutish va obyektlar energiya resurslarini o'lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo'yicha talablar majburiydir. Bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshiriladi.
42.	Favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish va fuqaro muhofazasi bo'yicha ishlab chiqiladigan texnik-muhandislik chora-tadbirlarga qo'yiladigan talablar	Agar obyekt favqulodda vaziyat bo'yicha toifalangan bo'lsa, FVV bo'yicha texnik shartlarga dalil keltiriladi hamda ushbu bo'limni ishlab chiqishning zarurligi to'g'risida ko'rsatma beriladi.
43.	Sanoat xavfsizligi bo'yicha texnik-muhandislik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha talablar	"Sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq ko'rsatiladi yoki amaldagi normativ-huquqiy va shaharsozlik hujjatlariga muvofiq bayon etiladi.

44.	Aholining nogironligi bo'lgan va kam harakatlanuvchi guruhlar hayoti va faoliyati sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	SHNQ 2.07.02-22 talablarida ko'rsatilmagan, nogironligi bo'lgan shaxslarning va harakatlanishi cheklangan insonlar obyektga kirish-chiqishlarini ta'minlash va binoda bo'lishlari vaqtida harakatlanishi uchun yaratiladigan sharoitlar bo'yicha qo'shimcha talablarni ko'rsatish.
45.	Yonginga qarshi kurash va xavfsizlik bo'limini ishlab chiqish bo'yicha talablar	Bo'lim normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqiladi. Zarur hollarda ushbu bo'limni ishlab chiqish bo'yicha qo'shimcha talablar va yong'inga qarshi kurash moslamalari va avtomatikasi turlari ko'rsatib o'tiladi.
46.	Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash bo'yicha talablar	Zarur hollarda, obyekt maketi, 3D-taqdimot, namoyish albomlarini tayyorlash zarurligi, shuningdek, taqdimot materiallariga talablar (slyd, video rolik va boshqalar) va ularning o'lchamlari ko'rsatiladi. Bunday materiallarni Arxitektura-shaharsozlik kengashida hamda mutasaddi idoralar va tashkilotlar bilan kelishish holati va zarurligi yoritiladi.
47.	Korxonaning ishlash rejimi	Obyektning yil davomida ishlashi yuklanganligi va korxonaning ish smenaligi ko'rsatiladi.
48.	Ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Korxonaning infratuzilmasi	Korxonaning sheriklar va hamkorlar bilan birgalikdagi ishlashi, shuningdek uning infratuzilmasi tarkibi ko'rsatiladi.
49.	Tashqi transport aloqalari va ta'minot sxemasi	Xomashyo, materiallar, asbob-uskunalarini korxonaga olib kelish va undan olib ketishni tashkil etish sxemasi ko'rsatiladi.
50.	Qurilish mo'ljallangan muddatlar (yil)	Qurilishning boshlanishi va tugatilish muddatlari ko'rsatiladi (hisobiy yoki ko'rsatma bo'yicha).
51.	Loyihalashtirish va qurilishni o'ziga xos shartlari	Loyihalashtirishni qiyinlashtiruvchi shart-sharoitlar (qurilish maydonining torligi va qiyinchiligi, obyektning tarixiy qurilish zonasida joylashtirish, madaniy meros obyektlarining mavjudligi, daraxtlarning mavjudligi, qurilish obyektining noyobligi, loyihalashtirish va qurilishni ishlayotgan korxonaning sharoitida amalga oshirish, qurilishni iqlimi sharoitlari og'ir, tog'li, yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda amalga oshirish va boshqalar) yoritiladi. Obyektning murakkablik toifasi ko'rsatiladi.
52.	Loyiha hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish (loyiha tashkiloti tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishni hisobga olmaganda)	Loyiha hujjatlariga o'zgartirish kiritish alohida imzolangan shartnoma va loyihalashtirish uchun topshiriq asosida amalga oshiriladi. Topshiriqda loyiha hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar bayon etiladi.
53.	Metall konstruksiyalarning va korxonaning sharoitida ishlab chiqariladigan muhandislik tarmoqlarining detallashtirilgan (KMD) chizmalarini ishlab chiqish	Ishlab chiqaruvchi korxonaning tomonidan yoki buyurtmachining talabi asosida qo'shimcha to'lov evaziga loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi. Topshiriqda bunday hujjatlar ishlab chiqarilishi zarurati ko'rsatiladi.

54.	Qurilishni tashkil etish loyihasini (QTEL) ishlab chiqish	Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) — to'liq hajmda SHNQ 3.01.01-22ga muvofiq ishlab chiqiladi.
55.	Qurilishning (qurilish-montaj ishlari) ishlab chiqarish loyihasini (QICHL) tayyorlash, qurilish tashkilotlarining ehtiyojlari uchun vaqtincha bino va inshootlar qurilishi uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqishga talablar	Bunday hujjatlar alohida shartnoma shartlari asosida tayyorlanadi. Topshiriqda bunday hujjatlarni ishlab chiqish zarurati ko'rsatiladi.
56.	Qurilishda mualliflik nazorati	Mualliflik nazoratini olib borish tartibi talablaridan kelib chiqqan holda shartlar kiritiladi. Loyiha tashkiloti tomonidan mualliflik nazoratini olib boruvchi mutaxassislarni biriktirish, ularni turar joy va xizmat xonalari, zarur jihozlar va asbob-uskunalar, ovqatlanishi hamda ish joyidan qurilish maydonigacha transport vositalari bilan ta'minlash talablari bayon etiladi. Mualliflik nazoratini olib borish uchun o'zaro hisob-kitoblar va xarajatlarni qoplash shartlari ko'rsatiladi.
57.	Korxonaning istiqboldagi kengayishi, foydalanishga topshirish navbatlari va qabul qilish komplekslarini ko'rsatish	Korxonaning istiqboldagi kengayishi bo'yicha chora-tadbirlar, foydalanishga topshirish navbatlari va qabul qilish komplekslariga bo'lish shartlari ko'rsatiladi.
58.	Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha talablar	Loyiha-smeta hujjatlarining bo'limlarini kelishish zarur bo'lgan mutasaddi idoralar va xizmatlarning to'liq ro'yxati ko'rsatiladi. Buyurtmachi va loyihachining ishtiroki darajasi bayon etiladi.
59.	Taqdim etiladigan loyiha-smeta hujjatlarining nusxalari soni, bo'limlarining tarkibi va mazmuniga bo'lgan talablar	Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga taqdim etish uchun buyurtmachi bir nusxada (qog'oz yoki elektron shaklda) taqdim etiladi. To'g'irlangan hujjatlarning buyurtmachi taqdim etiladigan nusxalari soni SHNQ-1.03.03-23 ning talablariga mos ravishda bo'lishi shart. Buyurtmachi tomonidan qo'shimcha nusxalar (shu jumladan, ularning elektron nusxalari) olish bo'yicha loyiha tashkiloti bilan kelishgan holda shartlar qo'yilishi mumkin. Bunda elektron hujjatlarning formatlari va ularni tashish vositalari ham kelishib olinadi.
60.	Qo'shimcha talablar	Buyurtmachi tomonidan loyiha tashkilotiga yuklanadigan hamda uning malakasi va tajribasiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar kiritiladi.

Buyurtmachi: _____

Kelishildi: _____

Bino (inshoot) energetik pasportining

NAMUNAVIY SHAKLI

Umumiy ma'lumotlar				
To'ldirish sanasi (sana, oy, yil)				
Binoning nomi				
Binoning adresi				
Loyiha ishlab chiquvchisi				
Qurilish yili (oxirgi rekonstruksiya yili)				
Binoning funksional vazifasi va tipi				
1.	Vazifasi			
2.	Binoda joylanishi			
3.	Tipi (konstruktiv tizimi, bino qavatlarining soni)			
Umumiy ko'rsatkichlar				
	Ko'rsatkich	Ishorasi va o'lchov birligi	Ko'rsatkichlarning qiymati	
			me'yoriy	Hisobiy (loyihaviy) haqiqiy
4.	Binoning umumiy yuzasi	A, m^2		
5.	Isitiladigan yuza	A_h, m^2		
6.	Isitiladigan hajm	V_h, m^3		
7.	Quyidagi tomonlarga qaratilgan fasadning oynavandlangan koeffitsiyenti: Sh (SHSH) Sh (JSH) J (JG') G' (SHG')	f	- - - -	
8.	Issiqlikdan himoya qilish me'yoriy darajasi			
9.	Yilning sovuq mavsumida ichki havoning harorati	$t_v, ^\circ S$		
10.	Yilning issiq mavsumida ichki havoning harorati (sun'iy iqlimni yaratishda)	$t_v, ^\circ S$		
11.	Bino shamollatilishining karraligi	n, s^{-1}		
Energetik ko'rsatkichlar				
12.	Isitish uchun sarflanadigan issiqlikning sarfi	Q_o, W		
13.	Ventilyatsiya oqimida havo isitgichini issiqlik bilan ta'minlashda issiqlik sarfi	Q_o, W		
14.	Isitish va ventilyatsiya uchun issiqlikning umumiy sarfi	Q_{ov}, W		

15.	Sun'iy iqlimni hosil qilish uchun sovuqlik sarfi	Q_k, W			
16.	Isitish va ventilyatsiya uchun issiqlikning solishtirma sarfi (bino umumiy yuzasining $1 m^2$ uchun)	$q_{ov}, W/m^2$			
17.	Sun'iy iqlimni hosil qilish uchun sovuqlikning solishtirma sarfi (bino umumiy yuzasining $1 m^2$ uchun)	$q_k, W/m^2$			
18.	Binoda ichki me'yoriy parametrlarni saqlash uchun zarur bo'lgan energiyaning shartli solishtirma sarfi	$q_e, W/m^2$			
19.	Sun'iy yoritish elektr qabul qiluvchilarning belgilangan umumiy quvvati	$N_{u.o}, kW$			
20.	Isitish tizimi, ventilyatsiya va sun'iy iqlimni hosil qilish uchun elektr qabul qiluvchilarning belgilangan umumiy quvvati	N_u, kW			
21.	Isitish tizimi, ventilyatsiya va sun'iy iqlimni hosil qilish uchun elektr qabul qiluvchilarning umumiy hisobi yuklamasi	N_{pot}, kW			
Ekspluatatsion ko'rsatkichlar					
22.	Isitish mavsumida binoni isitilishi uchun sarflanadigan issiqlik miqdori sarfi	Q_h, MJ			
23.	Yilning issiq mavsumida sun'iy iqlimni hosil qilish uchun sovuqlik miqdori sarfi	Q_k, MJ			
24.	Yilning issiq mavsumida sun'iy iqlimni hosil qilish uchun sarflanadigan elektr energiyaning sarfi	$W_k, MW\text{-soat}$			
25.	Yil bo'yicha elektr energiyaning umumiy sarfi	$W_{umumiy}, MW\text{-soat}$			
Xulosa					
26.	Binoning talab etiladigan issiqlik himoyaga muvofiqligi				
27.	Energiya samaradorlik sinfi				
Pasport to'ldirildi					
28.	Tashkilot				
29.	Yuridik manzili va telefon (aloqa)				
30.	Mas'ul bajaruvchi shaxs				

Izoh. Energetik pasport tarkibi qo'shimcha kiritiladigan energetik ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda o'zgarishi mumkin.

Energiya samaradorlik chora-tadbirlari quyidagi SHNQlar:

Poydevor va yerto'lalarni gidroizolyatsiya hamda devorlarda samarali issiqlik izolyatsiyalovchi materiallardan foydalanish ishlari SHNQ 2.01.04-18 ga;

Orayopmalar va pollarda issiqlik hamda tovush izolyatsiyalarini tashkil qilish ishlari SHNQ 2.01.04-18 va QMQ 2.03.13-19 ga;

Tomlarni issiqlik izolyatsiyalovchi qatlamlar bilan ta'minlash ishlari QMQ 2.03.10-19 va SHNQ 2.01.04-18 ga;

Binolarning tom qismida o'rnatiladigan muqobil energiya manbalarida iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ikkilamchi hamda qayta tiklanuvchan energiya resurslaridan foydalanish ishlari QMQ 2.01.18-19 ga;

Tabiiy yoritish tizimlari (derazalar hamda ularni to'g'ri germetizatsiya qilish) bo'yicha ishlar QMQ 2.01.18-19 ga;

Barcha turdagi jamoat binolarida energiyani tejash maqsadida yorug'lik sezuvchi qurilmalarni qo'llash bo'yicha ishlar QMQ 2.01.05-19 ga;

Binolarda isitish, shamollatish va konditsionerlash ketadigan energiyadan ratsional foydalanish (isitish tizimlariga termomuvofiqlashtiruvchi klapan o'rnatish) bo'yicha ishlar QMQ 2.04.05-97 ga muvofiq amalga oshiriladi.